

Irkayeva Nilufar Husanjon qizi
O‘zbekiston Jurnalistika va Ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
mustaqil izlanuvchisi
E-mail: bek0304@bk.ru

XORIJIY TILLARDAGI BOLALAR KO’RSATUVLARINI TAYYORLASHGA YONDASHUV (“BOLAJON” TELEKANALI MISOLIDA)

Annotatsiya: Mazkur maqolada, asosan Milliy teleradiokompaniya (MTRK) tizimidagi “Bolajon” telekanali orqali efirga uzatiladigan xorijiy tillardagi ko’rsatuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, yo’nalishdagi jahon tajribasi, bolalar televideniesining o’ziga xosliklari haqida ham so’z yuritiladi.

Kalit so’zlar: televideniya, bolalar ko’rsatuvlari, xorijiy tillar, ta’lim, tarbiya.

Иркаева Нилуфар Хусанжон кизи
Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана
Независимый соискатель
E-mail: bek0304@bk.ru

ПОДХОД К ПОДГОТОВКЕ ДЕТСКИХ ПРОГРАММ НА ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКАХ (НА ПРИМЕРЕ ТЕЛЕКАНАЛА “БОЛАЖОН”)

Аннотация: В данной статье в основном анализируются программы на иностранных языках, которые транслируются на телеканале “Bolajon” в системе Национальной телерадиокомпании. Также рассказывается о мировом опыте и особенностях детского телевидения.

Ключевые слова: телевидение, детские передачи, иностранные языки, образование, воспитание.

Irkayeva Nilufar Khusanjon kizi
Journalism and Mass Communication university of Uzbekistan
Independent researcher
E-mail: bek0304@bk.ru

APPROACH TO PREPARATION OF CHILDREN'S PROGRAMS IN FOREIGN LANGUAGES (IN THE EXAMPLE OF “BOLAJON” TV CHANNEL)

Annotation: This article mainly analyzes programs in foreign languages that are broadcasted by the “Bolajon” TV channel of National Television and Radio Company. It also talks about the world experience and the peculiarities of children’s television.

Key words: television, children’s programs, foreign languages, education, ethics.

KIRISH.

Ulkan ilmiy-texnikaviy yangiliklar va misli ko’rilmagan o’zgarishlarga guvoh bo’layotgan bugungi jamiyatda kichik yoshdagi yigit-qizlarning rivojlanishi, ularning dunyoqarashi, e’tiqodi shakllanishida ommaviy axborot vositalari, xususan televideniya muhim o’rin tutadi[1; 7].

Iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanish, madaniy faollikni oshirish, insonlarni ayniqsa, bolalarni atrof-muhit, huquq, imtiyoz va burchlar haqida xabardor qilish, hattoki odob-axloq, diniy ta’limot, bo’sh vaqtni samarali tashkil etish va til ko’nikmalarini o’rgatishda ham televideniyaning roli ulkan ahamiyat kasb etadi[5; 388].

Bugungi kunda bolalar televizor ekranlari qarshisida ulg’ayishmoqda. Bu ulardagi til rivojlanishiga ijobiy, shu bilan birga salbiy ta’sir ko’rsatishi ilmiy jihatdan isbotlangan. Amerika Akademiyasi Pediatrlarining qat’iy ko’rsatmalariga asosan, ota-onalar farzandlarining ekrandan foydalanish vaqtini cheklashlari maqsadga muvofiq sanaladi. Shunga qaramay, mutaxassislar televizion dasturlarni birgalikda muhokama asnosida ko’rish, bolalardagi til

ko'nikmalarining shakllanishiga katta hissa qo'shishini ta'kidlashadi. Televizor ko'rish jarayonida ham ota-ona ishtirok etsa, ekran orqali namoyish etilayotgan audiovizual tasvirlar bo'yicha birgalikda suhbat qurilib, tahlil qilinsa, bu holat bolaning shaxs sifatida o'z-o'zini anglashi hamda aqliy, ruhiy va fiziologik rivojlanishi uchun ijobiy ta'sir ko'rsatadi[5; 389].

Televizorning bolalarga ta'siri haqidagi xavotirlar mazkur audiovizual qurilma paydo bo'lgan vaqtdan boshlab mavjud. Bolalar uchun ixtisoslashtirilgan dasturlarning birinchi eshittirishlari Ikkinchi Jahon urushidan oldingi davrda bo'lib o'tdi. Muvaffaqiyatli radioeshittirishlari tajribasidan keyin televideniya o'zining bolalar dasturlarini taqdim etdi. AQSh, Yevropa va MHDda bolalar ko'rsatuvlarining shakllanish davri urushdan keyingi paytlarga to'g'ri keladi. Kichik yoshdagi tomoshabinlar uchun televideniya dastlab AQShda paydo bo'ldi. Rossiya televideniyasida esa, bolalar uchun ilk ko'rsatuv "С новым годом" nomi bilan efirga uzatilgan[2; 92].

Sohadagi rivojlanish va o'zgarishlar dunyo telekanallarida turli ta'lim shoularni paydo bo'lishiga zamin yaratdi. O'z navbatida bu ishlab chiqarish, yo'nalishda yana bir burilish, yirik media vakillari tomonidan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan telekanallarning tashkil etilishiga asos bo'ldi. Yevropa Audiovizual Observatoriyasining MAVISE ma'lumotlar bazasiga ko'ra, Yevropa Ittifoqida 280dan ortiq va Yevropaning qolgan qismida 320ga yaqin bolalar telekanallari o'rnatilgan[3; 206].

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Bolalar televideniyasi murakkab jarayon, mazkur yo'nalishda taqdim etiladigan telemateriallar bir nechta maxsus funksiyalarni bajarishi kerak. Bu borada xalqaro tadqiqotchi olimlar qator ilmiy izlanishlar olib borishgan va fikrlarini amaliy va nazariy ko'nikmalar orqali asoslab berishgan. Maqolada mutaxassislarning tajribalarini o'rganishga harakatga qildik. O'z navbatida, jahon tajribasini shaxsiy izlanishlarimiz samarasi bilan ham taqqoslab, fikrlamizni dallillab berdik.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Tadqiqotchi olim, G.B.Kuznetsovaning fikrlashicha, kichik yoshdagi tomoshabinlar uchun mo'ljallangan ko'rsatuvlarni tayyorlashda quyidagi jihatlariga ahamiyat qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi: 1. Axborot berish. 2. Tashkiliy masalalar. 3. Ijodiy fikrlash. 4. Madaniy-ma'rifiy. 5. Integrativ. 6. Ta'lim. 7. Ko'ngilochar. 8. Tarbiya

Tadqiqotchining ta'kidlashicha, bolalar uchun mo'ljallangan ko'rsatuvlar aynan shu yo'nalishlarni o'zida qamrab olishi lozim[2; 92].

Chindan, televideniya xodimlari bolalar ko'rsatuvlarini tayyorlashda yuqorida keltirilgan vazifalarga ahamiyat qaratishsa, telemateriallar har tomonlama mukammal bo'lishi, tabiiy hol. Biroq fikrimizcha, kichik yoshdagi tomoshabinlar uchun ko'rsatuvlar avvalambor, o'z kuzatuvchisiga bilim va tarbiya berishi joizdir. Ya'ni ahamiyatliligi jihatidan ta'lim va tarbiya mazkur ustunda birlamchi o'rinda turishi lozim deb o'ylayman.

Zeroki, rossiyalik tadqiqotchi V.Yegorov o'zining "Televideniyaning terminologik lug'ati: asosiy tushunchalar va sharhlar" kitobida bolalar teledasturlari "tomoshabinlarning eng yosh avlodi-maktabgacha, maktab, o'smirlik va yoshlarga qaratilgan maqsadli ko'rsatuvlar tizimi" degan ma'noni anglatadi deya izoh bergan. Bunday dasturlarning maqsadi turli yoshdagi bolalarni har tomonlama tarbiyalash va o'qitishdan iboratdir. Bu haqda esa, Belgorod Davlat universiteti izlanuvchisi M.Migal, "Bolalar televideniya-sining zamonaviy madaniyatga ta'siri" maqolasida aytib o'tgan [3; 206].

TAHLILLAR VA NATIJALAR.

O'zbekiston Miliy Teleradiokompaniyasi tizimadagi telekanallar orqali 1990-2000 yillar oralig'ida bolalar uchun mo'ljallangan ko'rsatuvlar, multfilm va filmlar muntazam efirga berib kelingan bo'lsa-da, ta'limni maqsad qilgan ilk ixtisoslashtirilgan "Bolajon" telekanali 2013-yil 1-iyundan boshlab ishga tushdi. Shu o'rinda qayd etish joiz, O'zbekistonda 10 yoshgacha bo'lgan bolalar soni 8 milliondan ortiqdir[7].

“Bolajon” telekanali tashkil etilgan vaqtning dastlabki davrlarida aynan xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini o’rgatishga qaratilgan ko’rsatuvlarga katta ahamiyat qaratilgan. Tillarni targ’ib etuvchi dasturlarni tayyorlash uchun “Yoshlar” telekanalidagi 30 foizdan ortiq xodimlar jalb qilingan. Tabiiyki, bu jarayonda chet tillarini biluvchi soha vakillari saralab olingan. Ijodkorlar birgalikda “English world”, “Cool English”, “ABC Kids” kabi o’nlab rang-barang ko’rsatuvlarni tashkil etishgan. Hozirgi vaqtda esa hamkor tashkilotlar tomonidan taqdim qilinadigan ingliz tilidagi videorolik va telemateriallardan tashqari, aynan telekanal ijodkorlari tomonidan tayyorlanadigan beshta ko’rsatuv kichik tomoshabinlar uchun namoyish etib kelinmoqda. Bular “Happy alphabet”, “Fairy tales”, “Cool English”, “Kids Land”, “Funny Dictionary” va bolalarning chet tillari bo’yicha bilimlarini sinovdan o’tkazish uchun mo’ljallangan qisqa rolik shaklidagi “English quiz” loyihasi efirga berib kelinmoqda. Telekanalning chet tillarini o’rgatuvchi maxsus teledasturlar muharririyati bosh muharriri I.Abdurahimovning so’zlariga ko’ra, “Bolajon” telekanalida ingliz tilidagi ko’rsatuvlar soni malakali pedagog va bolalar psixologlari bilan maslahatlashgan holda so’nggi yillarda birmuncha kamaytirildi.

Mutaxassislarning xulosasi bo’yicha maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda (asosan 10 yoshgacha) o’z ona tilisida to’laqonli fikrlash qobiliyati shakllanmagan bo’ladi. Bu holatda kichik yoshli tomoshabinlarga chet tilidagi ma’lumotlarni taqdim etishda me’yoriy o’lchovlarga ahamiyat qaratish maqsadga muvofiq sanaladi.

Ko’rsatuvlar son jihatdan kamaytirilgan bo’lsa-da, ijodkorlarning tinimsiz izlanishlari, qolaversa xalqaro hamkorlik natijasi o’laroq mavjud chet tillaridagi dasturlar mazmunan boyitilib, zamonaviy media o’zgarishlari bilan yanada qiziqarli shaklda efirga berib kelinmoqda.

Telekanalning bolajonlar o’rtasida ommalashgan ko’rsatuvlaridan biri “Happy alphabet” deb nomlanadi. Loyiha 10 yildan ortiq muddat davomida muntazam efirga berib kelinadi. O’tgan davr ichida dastur shartlari mazmunan

o'zgartirilgan bo'lsa-da, "Happy alphabet" shaklan bir xil holatda namoyish etiladi. Davomiyligi o'rtacha 20-30 daqiqani tashkil etadi. Ingliz, o'zbek tillarida olib boriladigan ushbu loyihada maktab yoshidagi yigir-qizlarning til bo'yicha bilimlari interaktiv shartlar asnosida sinovdan o'tkaziladi. Telemahsulot MTRK hududidagi pavil'yonlardan birida tashkil etilgan maxsus maydonchada tasvirga olinadi.

Rossiya bolalar televideniyasidagi bolalar ko'rsatuvlarini tayyorlashning o'ziga xosliklarini o'rgangan tadqiqotchi Y.A.Poezjayevaning tadqiqot natijalariga ko'ra, 70 foiz holatda maktab yoshigacha bo'lgan bolalar boshlovchi va ko'rsatuv qahramonlarining so'zlarini eslab qolishadi [2; 93].

Telekanal rahbariyati aynan "Happy alphabet" dasturi davomida muntazam qo'llaniladigan iboralarni kichik teletomoshabinlar yoddan aytib bera olishlarini alohida qayd etishdi. Ushbu loyihaning 20.12.2023 sanada efirga uzatilgan sonini ko'rib chiqamiz[6].

Dasturda 3 nafar ishtirokchi, Sardor Sulaymonov, Muhammad Aziz Mirvohidov, Xolida Hasanovalar ishtirok etishdi. 11 yoshli maktab o'quvchilari 3 ta shart bo'yicha o'z bilimlarini sinab ko'rdilar. Birinchi topshiriqda qatnashuvchilar, boshlovchining ingliz tilida aytgan turli harakatlarini ko'zlari bog'liq holda ko'rsatib berishdi. Ikkinchi shart mazmuniga ko'ra, yigit-qizlar rasmi ko'rsatilgan predmet va jonivorlarning nomini ingliz tilida bexato yozib berishlari kerak bo'ldi. Uchinchi vazifa avvalgilarga qaraganda nisbatan qiyin bo'ldi. Unga ko'ra, ishtirokchilar boshlovchining hikoyasi asosida maxsus doskada keltirilgan fotolarni ketma-ketligi bo'yicha to'g'ri joylashtirishlari talab qilindi.

Xususan, loyihaning bir sonida maktab darajasidagi savollar taqdim qilinsa, navbatdagi sonida ishtirokchilarning til ko'nikmalaridan kelib chiqib oliy ta'lim muassasalari darajasida ham shartlar beriladi. Sababi, bugun ingliz tilini puxta o'zlashtirgan maktab o'quvchilari ko'p. Ko'rsatuvda qatnashayotgan yuqori bilimli o'quvchiga oson savollar berib, shunchaki kichik tomoshabinlarni aldab qo'yishdan yiroqmiz deyishdi, - muallif ijodkorlar.

“Bolajon” telekanali tashkil topgandan beri namoyish etib kelinadigan dasturlardan biri bu, “Fairy tales”dir. Bu loyiha faqat ingliz tilida olib boriladi. O‘z nomiga ko‘ra, ko‘rsatuv davomida yosh tomoshabinlar uchun turli mavzularda ertaklar aytib beriladi. Ushbu telemahsulot O‘zbekistonda yashovchi xorijliklar, vazirlik, elchixona, konsullik idoralari va diplomatik korpus xodimlarining farzandlari tarbiyalanadigan maxsus bog‘chada tasvirga olinadi. Tabiiyki, ishtirokchi bolajonlarning aksari ingliz tilini mukammal biluvchi tarbiyalanuvchilar bo‘lishadi. Davomiyligi 8-10 daqiqani tashkil etadi.

Telemahsulotning 25.01.2024 sanasida namoyish etilgan sonida 7 nafar bolajonlar qatnashgan. Boshlovchi tomonidan “Bembi” haqidagi ertak aytib berildi. To‘g‘rirog‘i, kitobdan o‘qib berildi. Jurnalist nutq ohangining balandlashi, pasayishi, obrazga kirib aytilgan kichik asar taqdimoti maktabgacha yoshdagi yigit-qizlarni befarq qoldirmadi. Yosh tomoshabinlarga yanada tushunarli bo‘lishi uchun hikoya matni to‘liq shaklda namoyish etib borildi. Efir davomiyligi 7.17 daqiqani tashkil etdi. Ushbu muddat orqalig‘ida ya‘ni efir boshidan oxiriga qadar faqat boshlovchi gapirdi.

“Bolajon” telekanali orqali ingliz tilida namoyish etib kelinayotgan ko‘p yillik loyihalardan yana biri “Cool English” deb nomlanadi. Ko‘rsatuv kichik tomoshabinlarga chet tilining fonetik, leksik, grammatik qoidalari, yangi so‘z va iboralarni bolalarga oson usulda tushuntirib bilim berishni maqsad qilgan. Dastur davomiyligi o‘rtacha 15-20 daqiqani tashkil etadi. Loyiha o‘zbek va ingliz tillarida olib boriladi. Mazmun va shakl jihatidan telemahsulot ilk efir yuzini ko‘rgandan beri o‘z tuzilishini saqlab qolgan. 31.01.2023 sanada taqdim etilgan “Cool English” da xayvonlarning nomlaridan foydalangan holda ishlatiladigan iboralarning qo‘llanilishi va ma‘nosi haqida bilim berildi. Masalan, “busy as a bee”. Ushbu ibora aslida asalaridek band bo‘lish deb tarjima qilinadi. Gap tuzish jarayonida, nutqda bu birikma tinimsiz harakat, faol bo‘lish jummalari o‘rnida ishlatiladi.

Ko‘rsatuv davomida erkin va zamonaviy ingliz tilidagi so‘zlashuv jarayonida ishlatiladigan jami 12 ta idiomalar va ularning ishlatilishi haqida

ma'mulot berildi. Birikmalar borasidagi tanlov va ularning qo'llanilishi bilan bog'liq holatlar batafsil misollar bilan tushuntirib berildi. Biroq ko'rsatuv auditoriyasi bolalar ekanligini inobatga olsak, 17 daqiqa davomida umuman notanish bo'lgan 12 ta birikmalarning taqdim etilishi nafaqat kichik yoshli tomoshabinlar balki kattalar uchun ham me'yordan ortiq sanaladi.

“Cool English” loyihasi asosan, maktab yoshidagi bolalar uchun mo'ljallangan bo'lsa, telekanalning “Kids land” ko'rsatuvi maktabgacha yoshdagi yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, 0-4 yoshgacha bo'lgan yigit-qizlarni qamrab olishni maqsad qilgan. Ushbu ijodiy telemahsulot 90% o'zbek tilida olib boriladi. Dasturni maktab o'quvchisi, 12 yoshli Ahmadjon olib boradi. Davomiyligi 8-10 daqiqani tashkil etadi. Mazkur loyihaning asosiy, ahamiyatli jihatida ingliz tilidagi multfilmlar subtitrl bilan namoyish etiladi. Bu tilni bilmaydigan ota-onalar uchun ham ingliz tilini o'rganish, qolaversa farzandlari tomosha qilayotgan videolavhani oson tushunish imkonini beradi. Efir davomida ko'proq qo'shiq qilib kuylangan ijodiy materiallar taqdim qilinadi.

“Bolajon” telekanali o'z auditoriyasi uchun ingliz tilidagi “Funny dictionary” ko'rsatuvini ham taqdim qilib keladi. O'rtacha 15-20 daqiqa davom etadigan dasturda ma'lum mavzular asosida yangi so'zlar o'rgatib boriladi. Ko'rsatuvni boshlovchi Nargiza Mamasolieva olib boradi. 19.10.2023 sanasida “Constellation” ya'ni burjlarning inglizcha talqini aytiladi. Boshlovchi har bir so'zning fonetik talaffuziga alohida to'htalib, xarf va tovushlarning aytilishi, o'zgarishlar bilan bog'liq qoidalarni tushuntirib berdi. Dasturning ikkinchi qismida, “to have” va “have got” bilan bog'liq grammatik saboqlar berildi. Ma'lumotlar aniq misollar bilan tushuntirildi. Loyiha o'zbek va ingliz tillarida olib borildi. Efir vaqtida boshlovchining nafaqat yaxshigina jurnalistik mahorati balki chet tilida ham mukammal bilimga ega ekanligini payqash mushkul bo'lmadi.

Amerikalik tadqiqotchi Y.Kortniyning “Yosh bolalarning til rivojlanishida televideniyaning ta'siri” maqolasini yozish jarayonida amerikalik 6 ta oila bilan tadqiqot o'tqazadi. Unga ko'ra, oilalarning 4tasi boshqa harakatlar davomida

avvalroq ko'rilgan ko'rsatuv haqida bolalari bilan savol-javob qiladilar, 3 tasi esa bevosita teledasturlarni tomosha qilish barobarida o'zaro muhokamaga kirishadilar. Natija shuni ko'rsatdiki, aynan televizor qarshisida amalga oshirilgan dialog vaqtida bolalarning til ko'nikmalari nisbatan yaxshi shakllanadi, ko'rilgan voqea-hodisa yaxshi eslab qolinadi hamda mavjud jarayonga nisbatan bolada munosabat shakllanadi [4].

Bundan tashqari, "Bolajon" telekanalida hamkor tashkilotlar taqdim etadigan telemateriallardan tashqari ko'rsatuvlar orasida kichik tomoshabinlarning bilimlarini sinovdan o'tkazish uchun "English quiz" 1-2 daqiqali roliklar berib boriladi. Infografika yoki grafika yordamida test shaklida ingliz tiliga oid savollar taqdim etiladi.

XULOSA.

Telekanal faoliyati bilan bevosita tanishib, shunga amin bo'ldimki, bugun aynan ingliz tilini o'rgatishni maqsad qilgan loyihalar shu yo'nalishda 10 yildan ortiq, sohada esa undan ko'p tajribaga ega professional jurnalistlar, mahoratli pedagoglar tomonidan tayyorlanadi. Qayd etish lozim, telekanal endi ish boshlagan davrda aynan shu jamoa tomonidan bir vaqtning o'zida o'nlab chet tilidagi qiziqarli, rang-barang loyihalar yaratilib, efirga uzatilgan. Negadir so'nggi yillarda telekanal jamoasi tomonidan bu yo'nalishga biroz e'tibor susaygandek, nazarimizda. Televideniyaning ta'sir ko'lamini inobatga olib, "Bolajon" telekanali ijodkorlari tomonidan tayyorlanayotgan loyihalarni son, sifat va mazmun jihatdan biroz takomillashtirish lozim deb o'ylayman. Kanalning yutuq va kamchiliklarini tomoshabin va soha vakili sifatida tahlil qilib, bu borada o'z takliflarimni ta'kidlab o'tishni joiz bildim.

1. Auditoriya bilan munosabat: Ko'rsatuvlarga yanada ko'p tomoshabinlarni jalb etish uchun ularning teleloyihalarda ishtirokini ta'minlash, turli konkurs va interaktiv o'yinlar orqali kichik yoshli auditoriyani rag'batlantirish;

2. Odatiy formatdan uzoqlashish: Dars shaklidagi ko'rsatuvlarni ham o'yin tarzida tashkil etish;

3. 15-20 daqiqali dasturlar orasida bolalarni e'tiborini tortish va ekran qarshisida ko'proq ushlab turish uchun aynan bolalarga manzur keladigan qo'shimcha videolavhalardan foydalanish;

4. Psixologiya, pedagogikadan xabardor, tilni mukammal biluvchi, bolalarning "tilini topa oladigan", obrazga kirishib, har bir ma'lumotni kreativ yondashgan holda yetkazib bera oladigan mutaxassislarni, boshlovchilarni jalb etish;

5. Bolalar o'rtasida ma'lum va mashhur qahramonlarni dasturlarga mehmon sifatida taklif etish; (Multfilm, kinoqahramonlari obrazida)

Telekanal ijodkorlari kelgusidagi faoliyatlarida shu takliflarni inobatga olib, ko'rsatuvlar ustida yanada ishlashsa, samaradorlik ko'rsatkichi ortadi, loyihalar yanada manfaatli va foydali bo'ladi. O'z navbatida, telekanal reytingi yuqoriga ko'tariladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Галия Ибраева, "Типология передач для детей республиканского телевидения" Алматы Қазақ университеті 2021

2. Поезжаева Ю., "Специфика подачи телевизионных программ на отечественном телевидении для детей дошкольного возраста".

3. Марина Мыгаль, "Детское телевидение в контексте современной культуры", Белгородский государственный университет, Россия.

4. Courtney E. Daly, "Impact of Television on the Language Development of Young Children", University of Maine Honors College Summer 8-2019.

5. Huma Khan, Sajjad Ahmad Parach, Educational Programs on Children Television: A Content Analysis, (Fall 2019) | Page: 388 – 397,26

6. МТРК расмий телеграм канали

7. <https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>